

CONCEPT OF POWDER TECHNOLOGIES, DISADVANTAGES, ADVANTAGES

Komila Eshonqulova

Assistant of the Department of Pharmacology

Ernazarova M.SH.

Assistant of the Department of Pharmacology.

+998941814769

Nomozov Ekbek

student of the Faculty of Pharmacy

Annotation:

Understanding of powder technologies, disadvantages, advantages.

Keywords: powders, sprays, types of powders, advantages, requirements.

Asosiy tushunchalar. Poroshoklar deb, bir yoki bir necha dori moddalaridan iborat bo'lgan, ichish va sirtga ishlatish uchun mo'ljallangan sochiluvchan xususiyatga ega bo'lgan qattiq dori shakliga aytiladi.

Kirish qismi. Poroshoklar qadimdan ishlatib kelingan dori shaklidir. Eramizdan 3000 yil ilgari va hozirgi kungacha ular o'z mavqeini saqlab qolgan. Dorixonada umumiy retsepturaning 23—40% ni tashkil etadi.

Ishlatilishiga ko'ra:

Ichish uchun ishlatiladigan poroshoklar — pulveres pro usum internum.

Sirtga ishlatiladigan poroshoklar — pulveres pro usum externum deb atalib, ular bir necha guruhga bo'linadi:

Sepmalar — sepish uchun ishlatiladi — Pulveres adpersorii. Ularda zarrachalarning o'lchami 0,1 mkm atrofida bo'lib, ko'proq yosh bolalar uchun qo'llaniladi;

Hidlash uchun — zarrachalarning katta-kichikligi 0,2 mkm bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan kattalikdan oshmasligi kerak. Chunki, hidlanadigan poroshoklar yuqori nafas yo'llariga borishi zarur;

Purkash uchun — Pulveres insufflatorii. Zarrachalarning katta-kichikligi 0,1 mkm bo'lib, maxsus asboblarda yordamida purkaladi;

Tish poroshoklari — Pulveres dentifrici;

Uyda eritma tayyorlash uchun poroshoklar (chayish, ho'llab qo'yish, yuvish uchun eritmalar).



Tarkibiga ko'ra:

Oddiy poroshoklar: Pulveres simplices — tarkibida bitta dori moddasi bo'lgan poroshoklarga aytiladi.

Murakkab poroshoklar: Pulveres compositi — tarkibida ikkita yoki undan ortiq dori moddasi bo'lgan poroshoklarga aytiladi.

Miqdorga taqsimlangan tavsifiga ko'ra:

Miqdori taqsimlangan poroshoklar — Pulveres divisi. Shifokor ko'rsatmasiga binoan har bir beriladigan poroshok miqdorga taqsimlangan bo'ladi. Miqdorga taqsimlangan poroshoklar ikki xil ko'rinishda yoziladi:

Qay bir dorilar, o'zlarida biror xil ta'sir bo'lgani holda, qattiq yanchilsalar, boshqa xil ta'sirga ega bo'lishlari mumkin. Moddasi latif dorilarni yanchishda haddan oshirib yuborish kerak emas. Moddasi zich tuzilgan dorilarnigina haddan oshiq yanchish kerak. Ayniqsa dorilarni uzoq joyga o'tkazish istalsa va u dorilar zich tuzilgan bo'lib, harakatlari og'ir bo'lsa, ularni qattiq yanchish kerak bo'ladi.

Asosan dori moddalari kristall va amorf ko'rinishda bo'lgani uchun ularni dorixonalarda qayta maydalashga to'g'ri keladi. Shuning uchun dorixonalarda dorini maydalash uchun kerak bo'ladigan oddiy asbob-uskunalar yetarli bo'lishi kerak. Dorixonalarda eng ko'p ishlatiladigan maydalash asbobi bu hovoncha — mortaria, dastasi — pistilla.

Poroshoklarni dori turi sifatida afzalliklari:

- Tayyorlash texnologiyasi soddaligi;
 - Qo'llanilishi qulayligi;
 - Yuqori biosamaradorligi, ya'ni terapevtik faolligi (tabletkalarga nisbatan).
- Bu esa ayniqsa, gariatriya va pediatriyada katta ahamiyatga ega. Poroshokning zarrachalarni qancha mayda bo'lsa, shuncha faolligi yuqori bo'ladi, chunki bunda eruvchan, ayniqsa qiyin eruvchan moddalarning so'rilishi yengillashadi;
- Erimaydigan moddalar (faollashtirilgan ko'mir, oq gil, vismut nitrat asosiy va b.) yuqori disperslik holatida maksimal darajada adsorblash, o'rab olish, va antiseptik ta'sirga ega bo'ladi;
 - Tarkibning universalligi, chunki bitta dori shaklida turli xususiyatlarga ega bo'lgan dorivor modalarni saqlash mumkin;
 - Dozalashni aniqligi;
 - Ixchamligi va saqlash davomida turg'unligi.

Poroshoklarni dori turi sifatida kamchiliklari:



- Suyuq DT nisbatan terapevtik faolligi sekinroq namoyon bo'ladi
- Yuzasi katta bo'lganligi sababli tashqi muhit omillariga ta'sirchan bo'ladi (oksidlanadi, Namikni yutadi va b.

- Noxush hidli, achchiq ta'mli va va bo'ovchi moddalarni qo'llash noqulay
- Ba'zi bir dorivor moddalar (bromidlar, xloralgidrat va b.) oshqozon-ichak shilliq qavatiga qitqlovchi ta'sir ko'rsatadi.

Poroshoklarga qo'yiladigan asosiy talabalar:

- Sochiluvchanlik;
- Disperslik (barcha tarkibiy qismlarning optimal maydalik darajasida bo'lishi);
- Bir xilligi (murakkab poroshoklarda barcha tarkibiy qismlarni bir xil tarqalganligi);
- Dozaning aniqligi;
- Turg'unligi (saqlanish jarayonida moddalarning o'zgarmasligi).

Ba'zi bir poroshoklar uchun sterillik (ochiq yaralar uchun sepmalar, yangi tug'ilgan Chaqaloqlar uchun poroshoklar va b.) va boshqa xususiyatlari hisobga olinadi. Ishlatilishi va qo'llanilishidagi qulayliklar jud ham katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ed. Prof. R.N. Alyautdin. Farmakologiya: darslik. – 4-nashr, Rev. Va qo'shimcha .. – Moskva: "GEOTAR-Media", 2010. – P. 377, 423-431. – 832 p.
2. Yurak glikozidlari // 1. Kichik tibbiy entsiklopediya. – M.: